

**PIRLS XALQARO TADQIQOTI – MATNNI O’QIB TUSHUNISH
KOMPETENSIYASINING MEZONI SIFATIDA**

Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika kafedrasida magistranti

umidaeshmatova6@gmail.com

Eshmatova Umida Abdupayez qizi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi PIRLS tadqiqotining asosiy maqsadlari, tadqiqotning metodologiyasi va o‘lchov mezonlari, tadqiqotda ishtirok etadigan materiallar, sinovlar va savollar, tadqiqotning ahamiyati hamda dasliklar matni asosida PIRLS xalqaro tadqiqotlari talablariga mos holda tuzilgan testlar haqida olib borilgan tadqiqotlarimiz haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), tadqiqot, baholash, o‘qib tushunish, Literal tushunish, Inferensial tushunish.

Abstract : This thesis discusses the main objectives of the PIRLS research, its methodology and measurement criteria, materials, tests, and questions used in the study, the significance of the research, and test examples developed in line with the requirements of international PIRLS research, based on sample texts. It also reflects on the research conducted with respect to these aspects.

Keywords: PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), research, assessment, reading comprehension, Literal comprehension, Inferential comprehension.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются основные цели исследования PIRLS, методология и критерии оценки, материалы исследования, тесты и вопросы, значимость исследования, а также тесты, разработанные в соответствии с требованиями международных исследований PIRLS, на основе текстов в учебниках. Также отражены исследования, проведенные по этим аспектам.

Ключевые слова: PIRLS (Прогресс в международном исследовании грамотности), исследование, оценка, понимание текста, Литеральное понимание, Инференциальное понимание.

Bugungi kun o'qituvchilardan juda katta mas'uliyatni talab qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu xususda quyidagi fikrlarni bildirganlar: “Jamiyatda ta'limning ahamiyati, o'qituvchilarning roli va ularning bilim berishdagi ulkan mehnati beqiyosdir. Yosh avlodning bilim va tarbiyasiga bo'lgan yondashuvlar yangi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilishi zarurdir.”¹ Yuqoridagi fikrlar hozirgi shiddatli zamonning ayni haqiqatidir, chunki ular o'quvchilarga bilimlarni nafaqat taqdim etadilar, balki ular o'qish va tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlarni qo'llaydilar. Shuning uchun, PIRLS tadqiqoti kabi xalqaro tadqiqotlar, ta'lim sohasidagi yutuqlarni o'lchash va samaradorlikni tahlil qilish uchun muhim vosita bo'lib, o'qituvchilarning ishlarini takomillashtirishga yordam beradi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – bu xalqaro o'quv yutuqlarini baholash tadqiqoti bo'lib, o'quvchilarning matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini o'lchaydi. PIRLS dasturi 2001 yilda UNESCO tomonidan tashkil etilgan va 4 yil davomida o'tkaziladi. Tadqiqot dunyo bo'ylab 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini o'rganadi, bu esa o'quvchilarning matnni o'qib tushunish, tahlil qilish va undan ma'lumot olish qobiliyatini o'lchashga yo'naltirilgan.

PIRLS tadqiqotining asosiy maqsadlari:

Matnni o'qib tushunish darajasini baholash: PIRLS tadqiqoti o'quvchilarning matnni tushunishdagi muvaffaqiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Bu tadqiqot o'quvchilarning oddiy faktlarni aniqlash, ularning izlanishlari, matnning maqsadi va asosiy g'oyasini tushunish kabi kompetensiyalarini baholaydi.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 1-oktabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqida

Ta'lim tizimlarining o'qish savodxonligi bo'yicha yutuqlarini solishtirish: PIRLS dunyo miqyosida bir necha mamlakatlar o'rtasida ta'lim tizimlarining samaradorligini solishtirish imkonini beradi. Tadqiqot har bir mamlakatda o'quvchilarning o'qish savodxonligi qanday rivojlanayotganini va ta'lim tizimlarining bu boradagi yutuqlarini o'lchaydi.

Pedagogik yondashuvlarning o'quvchilar o'qish kompetensiyasiga ta'siri: Tadqiqot o'qish kompetensiyasining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi turli omillarni o'rganadi, jumladan, o'qitish uslublari, o'quvchilarning o'qish odatlari, o'quv materiallarining sifati va ota-onalarning ta'limga bo'lgan yondashuvi.

PIRLS tadqiqotining metodologiyasi va o'lchov mezonlari:

Matnni o'qib tushunish kompetensiyasi: PIRLS o'quvchilarning o'qish kompetensiyasini ikki asosiy turga ajratadi:

Literal tushunish: O'quvchilarning matnni faqat yuzaki, to'g'ridan-to'g'ri tushunishi. Bunga matnda aniq berilgan faktlarni yoki ma'lumotlarni olish kiradi.

Inferensial tushunish: O'quvchilarning matndan qo'shimcha ma'lumot olish yoki unga asoslanib xulosa qilish qobiliyati. Bu turda o'quvchilar matnning ma'nosini chuqurroq anglaydi va ularni turli kontekstlarda ishlatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqotda ishtirok etadigan materiallar: PIRLS tadqiqotida o'quvchilarga turli xil matnlar taqdim etiladi, jumladan, badiiy hikoyalar, maqolalar va ko'proq ma'lumot beruvchi, faktlarga asoslangan matnlar. Har bir matn o'quvchilarning matnni qanday tushunishi va undan qanday xulosa chiqarishi mumkinligini baholash uchun ishlatiladi.

Sinovlar va savollar: O'quvchilarga matnni o'qib tushunganliklarini tekshirish uchun turli xil savollar beriladi. Savollar o'quvchilarning matnni to'g'ri tushunish darajasini va uning mazmunini tahlil qilishdagi ko'nikmalarini o'lchaydi.

PIRLS va o'quvchilarning o'qish savodxonligi:

PIRLS xalqaro tadqiqoti matnni o'qib tushunish kompetensiyasini baholashda juda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning natijalari nafaqat

o'quvchilarning yutuqlarini aniqlaydi, balki ularni yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda ham yordam beradi. Har bir mamlakat o'z natijalariga qarab, ta'lim tizimini va o'qitish usullarini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, PIRLS o'quvchilarning matni o'qib tushunishdagi yutuqlarini taqqoslash imkonini berib, global miqyosda o'qish savodxonligini yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ko'rishga yordam beradi.

PIRLS tadqiqotining ahamiyati:

PIRLS tadqiqoti o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha global taqqoslashni amalga oshiradi, bu esa har bir mamlakatda o'quvchilarni tayyorlashda qanday muammolar mavjudligini va bu muammolarni hal qilish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini aniqlashga yordam beradi. Bunday tadqiqotlar ta'lim tizimlarini takomillashtirish va o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish uchun strategiyalar ishlab chiqishda katta rol o'ynaydi.

PIRLS dasturi asosida o'quvchilar adabiy ta'lim tizimini o'zlashtirish, ta'lim jarayonida beriladigan ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishga doir o'qish darajasini aniqlash ko'zda tutiladi.

Yozma shakldagi axborotlarni o'qish va uni tushunib bayon etish orqali inson onggiga ta'sir ko'rsatish mumkin. O'qilgan matni to'laqonli mazmunini anglab yetish orqali tafakkur yuksalib boradi. Buning uchun matn yuzasidan beriladigan savol va topshiriqlarning ro'li katta. Chunki matnda tushunilmay qolgan mazmunni matni qayta-qayta o'qish orqali tushunilmaydi, balki, anglab yetishga topshiriqlar yordam beradi.

“Fazoga sayr(Selli Rayd)

Fazoda biror ishga tayyorgarlik ko'rish yerdagidek oson emas. Fazo kemasida sayohat qiladigan fazogirlar fazoda turli ishlarni amalga oshirishlari kerak. Bajariladigan ishlarning ko'p qismi fazo kemasida ichida amalga oshirilsa ham, ayrim hollarda fazogirlar biror tajriba o'tkazish yoki ta'mirlash ishlari uchun fazo kemasidan tashqariga chiqishlariga to'g'ri keladi.

Fazo kemasida bo'lish aynan Yerda bo'lishdek emas. Yerda mavjud bo'lgan tortishish kuchi bizni havoda muallaq turmasligimizni ta'minlaydi. Fazoda esa fazogirlar vazinsizlik holatida bo'ladilar. Arzimas kichik harakat ham ularni xona bo'ylab suzib yurishlariga yoki havoda muallaq turishlariga sababchi bo'lishi mumkin. Bu holatga tushmaslikning yagona yo'li - biror mahkamroq narsani ushlab turish. Insonlar odatdagi kiyimda fazoda yasholmaydilar.

Fazogirlar fazo kemasida ekanliklarida tashqi fazo bo'shlig'idan himoyalangani, ammo kemadan tashqarida nafas olish uchun hech qanday havo yo'q, shu bilan birga fazoda harorat juda yuqori yoki juda past bo'lishi mumkin. Fazodagi obyektlarning quyosh nuri tushib turgan qismida harorat Selsiy shkalasi bo'yicha 115 darajagacha qizib ketishi, soyadagi qismi esa 95 darajagacha sovub ketishi mumkin.

Fazo kemasi ichidagi himoyalani doirasidan chiqishda fazogirlar maxsus skafandr kiyishlari kerak. Ikki fazogir har qanday fazo sathida tashqariga birgalikda chiqadi, chunki noma'lum muhitda ishlashda hamroh bilan chiqish osonroq va xavfsizroqdir. Tashqariga chiqmoqchi bo'lganlar bir necha soat oldin kiyinishni boshlaydilar. Ikkita skafandr bir tomonidan asosiy xonani yopadigan, boshqa tomonidan esa fazoga ochiladigan, kichik bo'lmalardan iborat havo shlyuziga olib boriladi.

Avvalo, fazogirlar egiluvchan naychalar maxkamlangan rezinadan yasalgan, uzun ichki kiyimga o'xshash maxsus kiyimni kiyadilar. Fazogirlarni sovutish uchun ushbu naychalar orqali suv yuboriladi, chunki tana harorati skafandrdan tashqariga chiqib keta olmaydi.

Skafandrning yuqori qismi egiluvchan qo'llarga ega qattiq qobiqdan iborat. Bo'yin qismiga joylashgan dubulg'aga ulangan metal halqaga fazogir boshini kirgizadi, uning qollari esa qo'lqoplar mahkamlanadigan ikki metal halqa ichiga kiritiladi.”²

PIRLS TESTLARI (mezon asosida muallif tuzgan savollar):

1. Gaplarni asar voqealari tartibida raqamlang.

² 4-sinf o'qish darsligi novda nashr

___Yerda mavjud bo'lgan tortishish kuchi bizni havoda muallaq turmasligimizni ta'minlaydi.

___ Tashqariga chiqmoqchi bo'lganlar bir necha soat oldin kiyinishni boshlaydilar.

___Fazoda biror ishga tayyorgarlik ko'rish yerdagidek oson emas.

___Arzimas kichik harakat ham ularni xona bo'ylab suzib yurishlariga yoki havoda muallaq turishlariga sababchi bo'lishi mumkin.

___Avvalo, fazogirlar egiluvchan naychalar maxkamlangan rezinadan yasalgan, uzun ichki kiyimga o'xshash maxsus kiyimni kiyadilar.

2. Nima uchun fazogirlarning arzimas kichik harakat ham ularni xona bo'ylab suzib yurishlariga yoki havoda muallaq turishlariga sababchi bo'lishi mumkin?

—

—

3. Fazogirlar avvalo, fazoda tashqariga chiqishdan oldin nima kiyadilar?

A. Egiluvchan naychalar maxkamlangan rezinadan yasalgan, uzun ichki kiyimga o'xshash maxsus kiyimni kiyadilar

B. Skafandrning yuqori qismini kiyadilar

C. Bo'yin qismiga joylashgan dubulg'aga ulangan metal halqaga fazogir boshini kirgizadi

D. Qo'llari esa qo'lqoplar mahkamlanadigan ikki metal halqa ichiga kiritiladi.

4. Fazogirlar Fazo kemasi ichidagi himoyalaniş doirasidan chiqishdan oldin kiyadigan maxsus kiyimning nomi nima?

A. Jilet

B. Branjilet

C. Skafandr

D. Maxsus dubulg'a

5. Fazodagi eng past daraja Selsy shkalasi bo'yicha qanchani tashkil etadi?

- A. 115
- B. 114
- C. 95
- D. 94

Yuqorida keltirilgan savollar asosida o'quvchilar berilgan matnni o'qishadi, ulardagi voqealar asosida tuzilgan savollarga javob berishadi. Asar haqidagi o'z xulosalarini yozgan holda matn jarayonidagi tushunchalarini umumlashtiradi.

Xulosa sifatida, boshlang'ich sinf o'quvchi shaxsiyati, bilimi, malakasi, ma'naviy qiyofasi ana shu til ta'sirida shakllanadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu – o'quvchilarning matnni o'qib tushunish va matn voqealari asosida tuzilgan xalqaro testlar uchun tayyorlashdan iboratdir. Zamonaviy ta'lim O'zbekiston yoshlarini istiqbolli kelajak sari yetaklaydi. Ta'lim-tarbiya, bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak deb hisoblaymiz.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020
2. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.
3. "4-sinf o'qish darslarida adabiy taxlil ko'nikmalarini shakllantirish" Hilola Bakiyeva "Nodirabegim" nashriyoti Toshkent - 2021
4. 4-sinf "O'qish savodxonligi" I qism darsligi U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova - "Toshkent" - 2023
5. <https://kun.uz/uz/news/2022/10/08/>